

## **QO‘QON ADABIY MUHITIDA MUQUMIY VA FURQAT FENOMENI**

**Temirova Orasta Tulkin qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs magistranti

@orastatemirova56@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolamizda o‘z davrining muhim shaxslari qatorida bo‘la olgan ikki buyuk siymo Muqumiy va Furqat fenomeni haqida baholi qudrat qalam tebratdik. Ular o‘zlaridan qoldirgan beqiyos katta va kichik lirik merosidan tashqari, bizga ma‘lum bo‘lgan devonlar ham tartib berganliklari bugungi kun adabiyotshunoslariga ham muhim manba bo‘lib kelmoqda. XIX asrda yashab ijod etgan ijodkorlar Muqumiy va Furqat haqidagi yirik manba Po‘latjon Qayumovning “Tazkirai Qayyumiy” asari orqali tahlilni amalga oshirdik.*

**Kalit so‘zlar:** *Muqimiy, Furqat, tazkira, g‘azal, muxammas, Ibrat, Ho‘qand, muhit, XIX asr, shuaro.*

### **ABSTRACT**

*In this article, we have written about the phenomenon of Muqumi and Furqat, two great figures who were among the important figures of their time. Apart from the incomparable great and small lyrical heritage they left behind, the fact that the divans known to us are also an important source for today's literary scholars. We analyzed the work of Polatjon Qayyumov's "Tazkirai Qayyumiy", a major source about the artists Muqumiy and Furqat who lived and created in the 19th century.*

**Key words:** *Muqimi, Furqat, tazkira, ghazal, mukhammas, Ibrat, Hoqand, environment, XIX century, shuaro.*

### **KIRISH**

Bu yorug‘ olam bunyod bo‘libdiki, inson zoti nimagadir intilib, kurashib yashaydi va bu kurashlar goh g‘oliblik, gohida esa mag‘lubiyat bilan tugaydi. Shunday kurashlardan birida butun bir davlat xonliklarga va amirliklarga parchalanib ketdi. Bunday kurashlar, asosan, ilm-fan insonlariga ham ruhiy, ham moddiy ziyon keltiradi. Shunday bo‘lsa ham ta‘bi nozik ilm-fan insonlari adabiyotshunoslar, shoirlar va yozuvchilar yo‘q bo‘lib ketmadi va ular o‘zlarining o‘lmas asarlari bilan bugungi kun shoirlariga ma‘naviy ustoz bo‘lib kelmoqda. Nafaqat bugungi kun shoirlari, balki o‘zi yashab turgan davr shoirlari ham bu insonlarni o‘zlariga faxr bilan ustoz deb bilgan. Ba‘zilari bevosita ustoz-shogirdlikka kirishgan bo‘lsa, ba‘zilari esa bilvosita ularni o‘zlariga ustoz deb bilgan. Bu shoirlarga el orasida

hurmat ortishiga sabab bo'lgan. Bilaks, ushbu maqolamizda o'z davrining muhim shaxslari qatorida bo'la olgan ikki buyuk siymo Muqumiy va Furqat fenomeni haqida baholi qudrat qalam tebratdik. Ular o'zlaridan qoldirgan beqiyos katta va kichik lirik merosidan tashqari, bizga ma'lum bo'lgan devonlar ham tartib berganliklarni bugungi kun adabiyotshunoslariga ham muhim manba bo'lib kelmoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

XIX asrda yashab ijod etgan ijodkorlar Muqumiy va Furqat haqidagi yirik manba Po'latjon Qayumovning "Tazkirai Qayyumiy" asarining II jildidan ishonchli va xolis ma'lumotlar keltiringan. Bizga ma'lumki, mazkur tazkirada qamrab olingan shoir va ijodkorlar o'zlari yashagan davriga ko'ra tasnif qilingan. Tazkirada ushbu ikki shuaro oldinma ketinlikda o'rin olgan va ular haqida bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan. Jumladan, bu shoirning nomi Muhammad Amin xo'ja bo'lib Ho'qand shahrida Xo'jan dahasida Bekbachcha mahallasida kosib, nonvoy oilasida dunyoga kelganligi va boshlang'ich maktabni mahallasidagi masjidida tamom etganligi va keying bosqichni madrasada Mullahomluhammad domladan taxsil ko'rgan so'ngra Buxoroga borib itmot etib kelganligi keltirilgan. Muqumiyni Buxoroda she'riy quvvati paydo bo'lib mashhur shoir bo'lib qaytadi va bu haqida Qayumov Mulla Abdulqodir kotibdan eshitganligini ta'kidlaydi. Muqumiy Ho'qandga qaytgach Madrasai Hazratdan bir hujra olib umrini oxirigacha shul hujrada yashaydi. Qayumovning aytishicha, onasi juda erta vafot etgan va otasi undan so'ng bir ayolga uylangan, Muqumiy Buxorodan Xo'qandga qaytguncha otasi ham haqning rahmatiga qovishganligi va ikki dona hamshirasi bo'lganligi va bir ayolga uylanganligi u ayol garchand o'zi xohlab Muqumiya tegsa ham, ammo ta'biga uning to'g'ri kelmaganligi sababli tark aloqa etib qo'yganligi va ularda bir o'g'il farzandning borligini, uning ismini Nishonxo'ja qo'ygaligi, bolaning oyoq bosh barmoqlaridan birining qo'shaloq bo'lganligi sababli shu nomni berganligi aytib o'tgan. Muqumiy bu o'gilchasiga sunnat to'y ham qilib elga osh berganligini jiyani Ro'zi Muhammad xoji so'zlaydi. Muqumiyning Xayriniso ismli hamshirasi bo'lganligi va Muqumiy Madinayi Munavvarda turib qolgan Qori Rahmatilla (nazmda taxallusi Maxzun) Muqumiya ayni tog'a emas, o'gay tog'a bo'lib Xayrinisoga tog'ayi aynnidur, deydi Muqumiyning jiyani xoji Ro'zi Muhammadxon.

Antalogiyada Muqumiy 1850-yilda iyun oyida tug'ilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Bunga sabab esa "Muallim Abdulqorining bog'chasida Mulla Ismoil Jumaboyev, Havz labida nastaliqni mashq qilib o'lturardim, Muqumiy kirib keldilar, soat o'n birlar edi. Muallim qori tut qoqishni buyurdi. Tut qoqish uchun men daraxtga chiqdim. Jabbor qori soatsoz ham bor edilar. Ular choyshab ushlab turdilar va keyin to'rtalamiz o'ltirib tut yedik", "Men tutni juda yaxshi ko'raman- chunki meni o'zim

ham tut pishig‘ida tug‘ilgan ekanman”, hazil ila aytdi-mi, to‘g‘ri so‘zladi-mi noma‘lum, deydi Mulla Ismoli Jumaboyev. Mulla Ro‘zi Muahammad qorining so‘zicha, tog‘asi 53 yoshida o‘lganligiga ishonmaydi. Oltmishga kirmagan, ammo ellikdan oshgandi. O‘limidan ikki yil oldin ko‘rdim, soqoli qora erdi. 56 yoshlar deb seza olmayman, deydi. Muqumiy o‘limidan 15 kun oldin Shayhon qabristoning mudiri Mulla G‘ofurjon nomli go‘rkovga: ”Mavlaby Jabbaliyning dahmasining sahnidan men uchun bir go‘rkovlashing mumkin-mi? Faqir orzuyim shudir, uzoqroq muddad qabrim el ko‘ziga ko‘rinib turib fotihalaridan umid tutar edim”, deydi. Muqumiyning tashqi ko‘rinishi haqida Mulla Ixson Xo‘jamqul o‘g‘li bunday deydi: “Muqumiy Muhammad Alixon madrasasida o‘qiganda, men ham talaba edim, Xomush, indamas qotmaroq bug‘doy rangli kishi edi. Guldestaga chiqib olib dars tayyorlab o‘lturganini ko‘p ko‘ra edim”.

Tazkirada Muqumiyning bir nechta g‘azal va muxammaslari va bir she‘ri keltirilgan. Quyida: “Keldim” radifli g‘azalidan

Ko‘p erdi xasratim jono qilay izhori deb keldim,  
Muqumiy kunji g‘am erdim, sani g‘amxo‘r deb keldim.  
Xatingmi rasta-rasta sabzai rayhoni jannatmu,  
Yuzing ko‘rib tomosho aylayin gulzor deb keldim.

Ushbu g‘azal 9 baytdan iborat va tazkirada to‘liq holda berilgan. Ya‘na tazkirada 6 baytdan iborat “Ham”, “Qachongacha”, “Ayladim” kabi g‘azallari va Navoiy va Amiriyning g‘azallariga ham muxammaslar bog‘lagan. Namangondagi do‘sti Nodimga Ro‘zadan shikoyat qilib “Tasviri ro‘zadoron” [1,210] nomli she‘rni maktub qilib jo‘natganligi haqida ham tazkirada keltirilgan. Tazkirada yana shunday manbalar ham keltirilganki, Roniq taxallusida ijod qilgan va Muqumiya xosroq qilib bir muxammas yozgan, mazkur muxammasda zamonadan shikoyat qilgan [3,463]

Yuqorida qayd etganimizdek, Muqumiyni o‘ziga ustoz deb bilganlar va bu bilan el orasida mashhurlikka erishmoqchi bo‘lganlardan yana biri G‘aribiydir. Ushbu shoir Ho‘qand shahrida Xo‘jand dahasiga dohil bo‘lgan Bekbachcha II mahallasida 1885-yilda kosib oilasida dunyoga kelgan va juda faqirlikda hayot ko‘rgan. Biroz ilm chiqargach diniy lavozimlarda xizmatda bo‘lib, o‘rta holroq tirikchilik qilgan. Elga o‘zini Muqumiyning shogirdi deb ko‘rsatsa-da, adabiy borada Muqumiyan bahralanganlik ko‘rinmaydi. Yozgan she‘rlari so‘z yig‘indilaridan iboratdir. [3,627] Quyda ijodidan parcha:

**Ey Muqumiy, yashnadi gulzoringiz  
Ochdi davron g‘uncha gul ruxsoringiz.**

**Baxtu iqboli zabun tole baland**

**Bir quyosh yanglig‘ to‘lib anvoringiz**

**Javri charx barbod tegirmon tosh sinib**

**Bo‘ldi rohatga mubaddal chekdigi ozoringiz**

**Tanasidan siynasiga o‘t tushib**

**Rashkdin kuygan kuygan hama ozoringiz**

**Furqati, Zavqiy yaqin do‘stlar muhib**

**Sevgida hamdardi, ham asroringiz**

**Siz tarafdori edingiz faqir elil**

**Zulum etuvchiga nafrat erdi koringiz**

**Qiymatin topdi asrlar pur baho**

**Xush ahlidir ahli yoringiz**

**Kuylaringiz dilga baxsh etgay safo**

**Mutrib ahli sozidin ash‘oringiz**

**To‘tiyo aylar o‘zingizni g‘arib**

**Mavzuningiz naqdijon aysoringiz.**

G‘aribiyning ushbu she‘ri Muqumiyning yubileyiga atab yozilgan. She‘rdan angashilgan mazmunga ko‘ra Muqumiy Furqat va Zavqiylar bilan hamdard, hamnafas bo‘lgan.

O‘z davrida eng sermahsul ijod qilgan, xalqni tasvishini qila olgan va uning dardini o‘zirikidek his etgan shoirlar, yozuvchilar zamonlar o‘zgarsa ham, avlodlar o‘zgarsa ham o‘zining kitobxonini va muxlisini yo‘qotmaydi. Chunki ular haqiqat uchun kurashgan xalq farzandlaridir. Furqatning umrining eng gullab-yashnagan davri vatanjudolikda o‘tdi. Turkuston general-gubernatorligidagi mustamlaka amaldorlar Furqatni ahvolini xalqdan sir tutgan, xalqning nazarida bu ulug‘, jonkuyar shoir sayohatda yallo qilib yuribdi, deb bildirganlar. Ammo tarixdan va o‘zining yaqin do‘stlari bo‘lmish Zavqiy bilan ham nasriy, hamda nazmiy xat almashganlar. Yozishmalaridan shu ma‘lum bo‘ladiki, Furqat o‘zining 18 yillik umrini vatandan ayro o‘tkazgan va Qo‘qonni juda ham qumsab yashagan. Bunga isbot tariqasida “Ahvolot” nasriy asaridan parcha keltiramiz: “Chun yoshim soati umr gabro‘zida yigirma to‘rt shumorig‘a yeti, ul vaqt Ho‘qand viloyatidag‘i fozili

rasotabe kishilar bilan birga ittihad aylab, alarning suhabatidin ko‘p bahralar topdim va asr shuarolarikim, Mavlono Muhiy, Mavlono Muqumiy, Mavlono Zavqiy, Mavlono Nisbatdurlar hamisha majlisi bunyod aylab, zodai tabilarimizdin mushaira qilur erduk. Va bir g‘azaldan tatabbu’ ko‘rguzib bir mazmun har nav ifoda topar erdi. Goh hamd gulshanidin gul uzub, goh na’t naxlistonidin samarchin bo‘lur erdik. Va ba’zi vaqt ishq tavsifi va husn tarifida g‘azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho‘x g‘azalni tofiba, anga har qaysimiz alohida muhammas bo‘glar erdik ”[2,225] Shundan ma’lum bo‘ladiki, Furqat o‘zidan yosh jihatidan ancha buyuk va ijodda pesh qadamroq bo‘lgan ustozlari, hamda do‘stlar ila bo‘lgan bu mushoira kechalarini sargardonlikda qattiq qumsab yurgan. Shu o‘rinda Qo‘qon adabiy muhiti haqida eng ishonchli manba bo‘lgan “Tazkirai Qayyumiy”ga ham bir nazar solsak, Furqatning hayoti va ijodiy faoliyati haqida shoirning ismi Firqat shaklida keltirilgan. Bu shoir Qo‘qon shahridan Xo‘jand dahasidagi Beshariq mahallasida Xolmuhammad ismli mayda savdogar oilasida tug‘ilgan. Ilk ta’limni mahallasidagi masjidida usuli qadim maktabida oladi. Bu maktab 1901-yilda yopiladi. Xat savodli bo‘lgach madrasai Muhammad Alixonda davom ettiradi. Muqumiy bilan ham shu davrda tanishadi. Abbasxo‘ja o‘g‘li Kalonxo‘ja Firqatni shunda xotirlagan 25 yoshgacha bo‘lgan davr hayoti feodalizm davri edi. 27 yoshlarida shoir bo‘lib tanilgan edi, Xudoyorxon shahardan chiqib ketib O‘rinburg‘ga nazorat ostida turagda feodallarga maqbul tarzda Xudoyor tilidan bir muxammas yozadi. Bu o‘sha zamon ruhiga mos tushadi:

***Qabul aylab xudo bu tavba birla oxu zorumni***

***Yana Farg‘onaga bir yo‘l o‘taygaymi gulzorimni***

***Quvonsa notavon ko‘nglim ko‘rib yoru diyorumni***

***Duogo‘ylar ichinda yaxshi bilgay e‘tiborimni***

***Darig‘o Firqatiydek diyda giryonlar qayon qoldi***

Ushbu muxammasi xalq orasida ancha mashhur bo‘ladi. Insonlar uni aytib yuragaligini va bu chor hukumatining ham qulog‘iga yetib borganligi ehtimoldan holi emas, ammo hukumat xalqning taniqli shoirini jazolab, xalqni g‘azablantirmaslik uchun indamagan bo‘lishi mumkin.[3,227] Furqat yurtidan uzoqda bo‘lgan davrlarida ham ijod qilganligi va ijod namunalarini Qo‘qondagi do‘stlariga yuborganligini tazkirada o‘rin olgan yana bir shoirda ham ko‘rishimiz mumkin. “*Bu shoir asl Marg‘ilondan bo‘lib Toshbolta Muhammad Ibrohim o‘g‘lidir Firqat ila do‘st Roiq taxallusi bilan shuhratlansa ham yozgan ashorlarida Ibrat tahallusini ixtiyor etgan to‘la g‘avdali inson bo‘lgan* “[3,456] Ibrat taxallusida Furqatning bir g‘azaliga muxammas bitgan.

***Qoshi mexrobinda qilg‘an jilvasidur Firqatiy***

*Nisbatiy, zavqiy, Muqimiy shevasidir Firqatiy  
Ibratiyning hayrat etgan hadisidir Firqatiy  
Bir kamon abru shahidi g'amzasiydir Firqatiy  
Qabrimi ko'rsata har kim qon oqar barmog'idin*

Tazkirada Roiqni Furqat bilan madrasaning bir hujrasida birga turganligi va uning yana boshqa g'azallariga ham muxammaslar bitganligini ko'rishimiz mumkin: "Ko'k mozor madrasasida Furqat bilan birga turatdik. U rastada choyfurushtlik ham qilardi."

Fuqat "Kashmirda", "Tafsirada", "Taqdirida" radifli g'azallarini aynan shu kishiga berib yuborganligi va uni Muqumiya ham berib qo'yishi kerakligini aytgan [3,465-b]. Furqat bir muddat Marg'ilonda turgan kezlarda Ibrat bilan ham birga turganligi va birgalikda ashula aytib xofizlik qilishar erdi, deydi shoir Mufazza. [3,466-b] Furqat ketgandan so'ng esa uni sog'inib "Ketding, ketding" radifli bir g'azal ham yozgan quyida g'azaldan parcha:

***Yig'lamoqdin bir pari hajrinda ey ahboblar,  
O'ng ko'zimdin oqdi qonu so'ngidin zardoblar.***

Xulosa qilib aytganda, bu ikki o'z davrining mashhur shaxslari xonliklar va mustamlakichilar davrida yashab ijod etgan bo'lsa-da o'z atrofiga, o'zi yashagan ijtimoiy sharoitiga qaramasdan yaxshi bir adabiy maktab va o'ziga xos ijod qilgan fenamenlardir. Bu zotlarni fenomenlar deyishimizdan maqsad yuqorida ham keltirdikki, ular atroflarida bir qancha tabi nazmni jamlaganligi va ularga shogirdlik tushish istagi baland bo'lgan shoirlarni ham ko'rdik. Alalxusus, Muqumiy va Furqatni o'z davrning eng yorqin vakillari ekanligidan dalolat bo'ladi. Nafaqat ijodda balki ijtimoiy va siyosiy sohada ham faol ishtirok etgan. Bunga misol tariqasida Furqatning Xudoyorxon va uning avlodlari bilan bo'lgan munosabati va yozishmalarini va hatto general gubernator bilan ham muzokaralar olib borgan, xalq farzandlar deb atasak xato qilmagan bo'lamiz, chunki bular o'sha davrning ahvolini ya'ni oddiy xalqning turmush tarzini ham o'z ijodida garchand hazil mutoyiba shaklida bo'lsa-da baralla kuylay olgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. Muqimiy, Ikki tomlik asarlar to'plami. II-tom -Toshkent, 1960, B-199
2. Qayyumov P. Tazkirayi Qayyumiy 1-jild -Toshkent, 1997, B-244
3. Yusupov Sh . Xudoyorxon va Furqat - Toshkent, Sharq,1995 , B-69-67
4. Мухиддинов, М. Қ. (2023). СЎЗ ГУҲАРИ... *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 786-793.